

OILANING VAZIFALARI VA BOLA TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI

**Mengziyayeva Fotima**

**Buranova Gulmira**

**Jambulova Matluba**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim  
yo'nalishi 4 -bosqich talabasi*

**Annotatsiya :** Bola tug'lishining ilk kunida yoq oila atalmish kichik jamiyat qurshovida bo'ladi. Komil shaxs bo'lib tarbiyalanishida oila katta maktab rolini o'ynaydi

**Kalit so'zlar:** reproduktiv, reaktiv, kommunikativ, regulyativ, klassifikatsiya, emotsional, kontakt, felitsitologik, estetik, mikromuhit.

Oila -jamiyatning ajralmas bo'g'ini. Har bir insonning shaxs bo'lib voyaga yetishiga beminnat xizmat qiluvchi va tarbiyalovchi hayot maktabidir. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlariga ko'ra inson kamolotida uch narsa muhim rol o'ynaydi: 1. Irsiyat 2. Muhit 3. Tarbiya

Ayni damda bola dunyoga kelishi bilan uni o'rab turgan kichik muhit uning oliasi hisoblanadi. Toki bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga, maktabga, jamiyatga qadam quyguncha oila u uchun eng katta tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi muhit sanaladi. Bunda bola ulg'ayishi bilan oilaning asosiy vazifalari ortib boradi.

Hozirgi zamon oilasining asosiy vazifalari

Har bir oila ijtimoiy tizim struktura sifatida jamiyat oldida ma'lum bir vazifani bajaradi. Oilaning ijtimoiy vazifalari haqida gapirganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta'sirini, ikkinchi tomondan esa umumiy ijtimoiy tizimda oilaning o'rnini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy (jamoatchilik) vazifalarini hisobga olish lozim.

Barcha oldingi jamiyatlarda oila quyidagi asosiy vazifalarni bajargan: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, reaktiv, kommunikativ, regulyativ (boshqaruv).

Bu haqda Sharq allomalari Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Ahmad Donish va boshqalar o'z asarlarida yozib qoldirganlar.

Albatta, bu sanab o'tilganlar hozirgi zamon oilasini asosiy vazifalarining yagona klassifikatsiyasini tashkil eta olmaydi. Chunki ayrim manbalarda: naslni davom ettirish, tarbiyaviy, xo'jalik va yordam kabi vazifalar hozirgi zamon oilasining muhim vazifalari sifatida ko'rsatib o'tilgan, sotsiolog olimlar (U.M.Sverdlov, V.A.Ryasensov, V.P.Klyuchnikov) esa inson zotini davom

ettirish, bolalarni tarbiyalash va xo'jalik vazifalarini farqlaydi; S.D.Laptenok xo'jalik maishiy, aholi sonini qayta tiklash, tarbiyaviy va oila a'zolari dam olishi-hordig; nini tashkil etish; N.G.Yurkevich-ma'naviy muloqot, seksual, bolalarni dunyoga keltirish, tarbiya jarayonidagi hamkorlik, uy xo'jaligini yuritish uchun zarur vositalarni ta'minlash, dam olishni tashkil qilish o'zaro moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash; A.G.Xarchev-aholi sonini qayta tiklash, ijtimoiylashuv, xo'jalik, iste'mol va dam olishni tashkil qilish kabilarni farqlaydi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, qator oilashunos mutaxassislar tomonidan oilaning asosiy vazifalari turlicha klassifikatsiya qilinmoqda. Bu o'rinda oilavazifalarini shunchaki sanab o'tish emas, balki ularni bir tomondan odamlarning moddiy, xo'jalik-maishiy va ikkinchi tomondan emotsional va ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarni qondiruvchi vazifalarga farqlash mumkin.

Shuni ham aytib o'tish joizki, hozirgi zamon oilasida emotsional va ijtimoiy-psixologik jarayonlarni qondirish vazifasining ahamiyati ortib bormoqda. Hatto sof moddiy harakterga ega bo'lgan vazifalarda ham hissiylik ko'proq tus olib bormoqda. Hissiy, emotsional kontaktlarning ahamiyati shahar oilalarida kuchliroq anglanmoqda. Qishloq oilalari esa uy hayvonlari va tomorqa yerlarining borligi evaziga shahar oilalariga qaraganda jamiyatning ishlab chiqaruvchi bo'g'inini, ishlab chiqaruvchilik vazifasini ko'roq saqlab qolmoqda.

Insoniyat tarqiqiyotining hozirgi bosqichida bugungi zamon oilasining asosiy vazifalari qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulyativ (boshqaruv), feliotsitologik kabilar.

Oilaning tarbiyaviy vazifasi

Oilaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan yana bir vazifasi tarbiyalashdir. Bolalarning aqliy, jismoniy, ahloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini quyish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishti qo'yilguncha javobgardir. Ota-onasana-san'atkor, bola-san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng milliy qadryatlarimizning tiklanishi va xalqimiz azaldan saqlab kelayotgan milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz (bola tarbiyasida ota-onadan tashqari, buvi-buva, qarindosh - urug', mahallaning ham ta'siri) bu borada katta ahamiyatga ega. Lekin ba'zan oilaning tarbiyaviy vazifasining susayishi va targ'ibot-tashviqot ishlarining kamligi natijasida oila a'zolari xulqida yomon odatlarning (ichish, chekish, narkomaniya, turli diniy oqimlar ta'siriga berilish, ma'naviy buzulqik yo'liga kirish) paydo bo'lishi tashvishlanarli hollardan

biridir. Jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining mazkur vazifasi darajasiga kiradi.

Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi. Oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma'lum bir siyosiy-g'oyaviy dunyoqarsh ,axloqiy me'yorlar va xulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi. Xalqimizda "qush uyasida ko'rganini qiladi" deb bejiz aytilmagan. Oilada amalga oshadigan ijtimoiylashuv jarayoni natijasida shaxs ijtimoiy me'yorlar va qadryatlarni o'zlashtiradi, ijtimoiy hayotga kirib boradi.

Kaykovusning "Qobusnoma" kitobining "Farzand parvarish qilmoq zikrida "bobida shunday keltirilgan: "Farzandga adab ,hunar o'rgatmakni meros deb bilg'il. Agar sen xoh unga adab o'rgatg'il, xoh o'rgatmag'il turmush mashaqqatlarining o'zi unga o'rgatur. Undoqkim debdurlar ,ota-ona tarbiyalamasa, kecha va kunduz uni tarbiyalaydur.

Ey farzand, agar farzanding bo'lsa ,anga yaxshi ot qo'yg'il, nedinkim, otadin farzand xaqlaridin biri unga yaxshi ot qo'ymoqdir. Yana biri uldurkim, farzandni oqil va mehribon doyalarg'a topshirg'aysen. Sunnat qilur vaqtida sunnat qilg'aysan, qudratingga loyiq to'y va tomosha qilg'aysan hamda o'qishni o'rgatg'aysan .Ulug'roq bulg'onidan so'ng ,agar raiyat bo'lsang, unga hunar va kasb o'rgatg'aysan, agar sipoh ahlidan bo'lsang, sipoh ilmin o'rgatg'aysan. Bularni bilg'andan so'ng shinovarlik ya'ni suvda suzmak o'rgatg'il"

Qadimdan ham farzand tarbiyasiga jiddiy qaralgan va bir qancha vazifalar ota -ona zimmasiga yuklatilgan .Farzandning yetuk va komil bo'lishi uchun bir qancha ilmlarni navbatma navbat o'rgatib borish, ya'ni uni katta hayotga tayyorlash bosqichlarini birma -bir sanab o'tilgan. Hattoki ism qo'yish borasida ham to'xtab o'tilgan. Kelajakda farzand o'z ismidan norizo bo'lmasligi yoki tengdoshlari orasida kamsitilmasligi, o'zini ismining ma'nosidan uyalishi ham e'tiborga olinib, ism qo'yish ham bir vazifa qilib berilgan.

Farzand yaxshi xulq atvorga va aql-farosatga ega bo'lgan bo'lsa, hayot saboqlarini shunchalik teran anglaydi va ezgu ishlarni amalga oshiradi. Aksincha bo'lsa u bugungi kunda globallashib borayotgan tahlika zamonda yot g'oyalarga asir bo'lib, to'g'ri yo'lni yo'qotishi, qonunchilikni bilmasligi oqibatida jinoyat ko'chasiga kirishi mumkin.

Oiladagi tarbiya bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Taniqli pedagog A.S. Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etib o'tgan. Bu haqida u shunday deb yozgan: "...Tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak siz besh yoshgacha nima

qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90% ini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi". Ayni shu davrda ota-onaning tarbiyadagi e'tibori, oilaviy muhitning sog'lomligi farzand kamolida katta ahamiyat kasb etadi.

Farzand tarbiyasida ota-onaning muomilasi muhim o'rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib kaltak yeb katta bo'lsa bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi.

Abu Ali ibn Sino etika va axloqiy tarbiya masalarini falsafiy pedagogik asosda yoritib berishga harakat qilagan. U, ayniqsa, oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib: "Bola tug'ilgach, avvalo, unga yaxshi nom qo'yishi, so'ngra esa uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak... Agarda oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa, oila baxtli bo'ladi" degan fikrni ilgari suradi.

Obiddin Mahmudovning "Farzandnoma" kitobining "Yosh ota-onalarga yetti maktub" bobida shunday deyilgan:

"Tarbiya-ota-ona bilan farzand munosabatlarida ko'rinmas, biroq mustahkam rishta, kuyinchaklik, ammo mas'ullik tori, qattiqqo'llik, lekin mehr-u muhabbat ipi, indamaslik, biroq ibrat sozi go'zal tashbeh-u tanbehlar shodasi hisoblanadi.

zurriyot kamoloti yo'lida tarbiyaning bunday mushkul va nozik jihatlarni ilg'ay olgan va bu unsurlardan mohirona foydalana bilgan ota-ona ham oqil, ham baxtiyordir..."

"Birinchi maktub" qismidan:

Noto'g'ri berilgan tarbiya - qishiq yasalgan ko'za kabidir

O'z farzandingni yaxshi xulq-odobli va aqlli bo'lishiga o'rgat. Kimki yoshlikdan yaxshi xulq-odob egallamas ekan, ulg'ayganda undan bilim talab qilma.

Majididdin Xavofiy

Darhaqiqat, hayotda har bir ota-ona ko'zagar (kulol) ga o'xshaydi. Farzand tarbiyasi-uning dunyoqarashi, fikrlash darajasi, salohiyatini yuksaltirish xuddi loyni avval obdon pishitib, zuvala qilib, so'ng uni ko'za shakliga keltirishdek o'ta jiddiy va nozik jarayon hisoblanadi. Ko'za tandirda pishgach, uni qayta to'g'irlash mumkin bo'lmaganidek, farzand tarbiyasi boshida yo'l qo'yilgan xatolar keyinchalik ota-ona, jamiyat uchun juda qimmatga tushadi.

Demoqchimizki, noto'g'ri tarbiya olgan farzand oradan yillar o'tib ota yoki ona bo'ladi va u ham, o'z navbatida, avlodi davomchilarini "qiyshiq ko'za" asosida tarbiyalay boshlaydi. Oqibatda tarbiyada yo'l qo'yilgan ayrim noqisliklar, masalan, so'zlashganida so'kong'ich iboralarni bemalol

ishlatishlari, qizlarimizning sigareta chekishi, yarim yalong'och yurishi, yelkasi va oldi ochiq kiyimlarni kiyishi kabilarni yoshlar oddiy hol sifatida qabul qila boshlaydilar. Eng xavfli, bunday tarbiyani go'zallik timsoli (etalon) sifatida qarovchilar safi jamiyatda kengayib boradi.

Shunday ekan, bugungi globallashuv sharoitida ota-ona tomonidan farzand tarbiyasidagi hafsalasizlik, beparvolik, o'zbo'larchilik, sabr-toqatning yetishmasligi oqibatida "qiyshiq ko'za" standarti-go'zal axloqning andozasiga aylanib qolishi mumkin.

Buning oldini olish uchun sharqona tarbiya asoslarini, ota-bobolarimizning bu borada tutgan tutum, yo'l yo'riqlarini zamon, davr taqazosi bilan uyg'unlashtirgan holda olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Demak, azaliy ma'naviy buloqlar sarchashmalaridan oqilona va unumli foydalanishni yo'la qo'ya bilish zarur, toki zamon, davr sinovlaridan o'tib kelayotgan ko'p ming yillik an'anaviy tarbiya bilan uning zamonaviy tarzdagi mantiqiy davomiyligi o'rtasida uzilish bo'lmasin!

Xulosa shuki, farzand-u zurriyotlaringizni jiamonan sog'lom, ma'nan barkamol, qalban fidoi, axloqan go'zal, mehnatsevar, ilm-u ma'rifatga oshno, yurti, ota-onasi, aka-uka, opa-singillariga sadoqatli etib tarbiyalash siz ota-onaning asosiy va sharafli burchingizdir!

Obiddin Mahmudovning ushbu kitobini har bobida odob-axloq qoidalari mujassamlashgan, pand-u nasihatlar, qissa va rivoyatlar bilan yoritilgan, tarbiyaning eng go'zal hilqatlari ochib berilgan, to'g'ri yo'l va tog'ri milliy sharqona tarbiyaga boshlovchi kitobdir.

Shunday ekan har bir oila, har bir mahalla, har bir millat, har bir oiladagi ota-ona farzand tarbiyasiga mustahkam turishi, o'zini ushbu ishda ma'sul deb bilishi, kelajagimiz poydevori mustahkam bo'lishini ta'minlashda o'z hissasini qo'shmog'i, jamiyatning ajralmas bo'lagi bo'lgan shaxsni tarbiyalashda ma'suliyat bilan yondashmog'i darkor.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oila psixologiyasi

2. Farzandnoma. Obiddin Mahmudov "O'qituvchi" NMIU. Toshkent 2020

3. Qobusnoma. Kaykovus, O'qituvchi, Toshkent 2020

4. Elektron

ta'lim

resurslari

[http://www.edunet.uz/](http://www.edunet.uz;); [http://www.ziyonet.uz/](http://www.ziyonet.uz;); <http://www.arxiv.uz>